



## O'G'UZ SHEVALARIDA YORDAMCHI SO'Z TURKUMLARINI QO'LLANILISHI

**Palvonnazarova Hayotxon Jamoladdin qizi**

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

**Shamuratova Sunajon Odilbek qizi**

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10691038>

### ARTICLE INFO

Received: 16<sup>th</sup> February 2024

Accepted: 21<sup>th</sup> February 2024

Online: 22<sup>th</sup> February 2024

### KEYWORDS

Sheva, dialekt, lahja,  
qo'shimchalar, lug'atlar,  
Xorazm, o'g'uz.

### ABSTRACT

*Ushbu maqola O'g'uz shevalarida yordamchi so'z turkumlarining qo'llanishi haqida ma'lumot beradi. Maqolada adabiy til va she'va munosabatlarini yordamchi so'zlar bilan bog'lab, qanday farqlarga ega ekanligini aniqladik. Shevalarni o'rganish va tadqiq qilish hozirgi kunda ham muhim masala hisoblanadi.*

O'zbek xalq shevalari juda ko'p va xilma-xil bo'lib, ularning ayrim qismlarigina fonetik va grammatik jihatdan o'rganilgan. O'tgan asrlarda yaratilgan ilmiy asarlar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Jumladan, F. Abdullayev "O'zbek tilining Xorazm she'valari", N. Rajabov "O'zbek she'vashunosligi", V. V. Reshetov "Тюркологический сборник" va boshqa olimlarning ilmiy ishlarini aytishimiz mumkin. Shu jumladan, F. Abdullayev Xorazm shevalariga oid namunalarni xalq orasidan, ko'chalarda yurib jonli she'valardan tuzgan. Xorazm shevalari boshqa shevalardan va adabiy tildan nihoyatda farq qiladi. Qarluq, qipchoq lahjalari o'laroq, o'g'uz shevalari orasida hali yaxshi o'rganilmagan tomonlari ko'p. O'g'uz lahjasi hududiga mansub Xorazm viloyatining areal zonasi Urganch hisoblanib, u ham viloyatning boshqa hududlaridan o'z shevasi bilan ajralib turadi. Shunga ko'ra Xorazm viloyatining har bir hududida shu shevaning turli ko'rinishlari uchraydi. Ya'ni, o'g'uz lahjasiga oid Xorazm shevalari ham yana bir qancha mayda sheva guruhlarga bo'lingan. Bunga turlicha sabablar bo'lishi mumkin.

Ular bir-biridan nafaqat geografik joylashuv jihatidan, balki sheva tomondan ham birmuncha farq qiladi. Demak, shevalar umumiy bir lahja tarkibida birlashsa ham, fonetik, morfologik jihatlaridan turlicha bo'lishi mumkin. Na'muna qilib Urganch va Qo'shko'pir hududlari shevalarini olishimiz mumkin. Urganch sharqdan Xonqa, g'arbdan esa Qo'shko'pir tumanlari bilan chegaradosh. Bu hududlarda lahja bir bo'lgani bilan shevalarida farq qiladigan so'zlar ham mavjud. Professor E. D. Polivanov tasniflashicha, "o'g'uz lahjasi" o'z ichiga ikki guruh shevalarini olar ekan.

Bular: 1. Janubiy Xorazm guruhi shevalari ( Xiva, Urganch, G'azavot, Shovot, Xazorasp, Yangiariq, Xonqa kabi) kiritilgan.

2. Shimoliy o'g'uz guruhi shevalari (Iqon-Qorabuloq kabi) kiritilgan ekan.



Professor ham tasnifiga ko'ra ularni bir guruhga birlashtirgan. Bilamizki, o'zbek tilshunosligida so'zlarga qo'shimcha ma'no yuklash, ularni uslubiy bo'yoqdorlik xususiyatiga ega qilish maqsadida yordamchi so'z turkumlaridan foydalaniladi. Ularni xoh she'va bo'lsin, xoh adabiy til bo'lsin, so'zlovchi nutqiga uslubiy ma'no yuklab tinglovchiga ta'sir qiladi. Shu jumladan, kuchaytiruv, ta'kid yuklamalari (ham, ku, u, yu, oq, da, ki) gapga tasviriy ma'no beribgina qolmay, so'z ma'nosini kuchaytirish, ta'kid ma'nosini qo'shish uchun ham ishlatiladi: Necha marta ko'rishay dedim-ku, sira vaqtim bo'lgani yo'q. Ko'makchi va bog'lamalar ham so'zlarga ta'kid, kuchaytirish ma'nolarini yuklaydi va bir-birini o'rnida almashib kelish hodisalari kuzatiladi. Bularning barchasi o'guz lahjasiga mansub Xorazm she'valarida tamomila o'zgachadir. Masalan, "faqat" yuklamasi bu she'va tipida "quri" shaklida keladi: Faqat seni aytganing bo'ladi. Quri sani oytqoning bo'lodi. Bu esa adabiy til me'yorlari bilan qarama-qarshilikni yuzaga keltiradi, ammo bu so'z birgina "faqat" ma'nosini beribgina qolmay, "quruq" ma'nosini ham anglatadi: quruq idish-quri idish. Yuklamalarga kelsak, Xorazm she'valarida ular adabiy tilga nisbatan boshqacharoq ishlatiladi :

1) "-da" qo'shimchasi kuchaytiruv-ta'kid yuklamasi bo'lib, Xorazm she'vasida "-don" qo'shimchasiga to'g'ri keladi: Ketib qolganidan keyin xafa bo'ladi-da! Getip qolgongan keyn xofo bolodidon!

2) "-chi" qo'shimchasi so'roq-taajjub yuklamasi hisoblanib, Xorazm she'valarida 'songo, sangiza' tarzida gavdalanadi: Qo'ysang-chi (qo'ysangiz-chi) bu ishingni! Qo'ysongo (qo'ysangiza) b ishingni!

3) "-ku" qo'shimchasi ham kuchaytiruv-ta'kid yuklamasi turiga kiradi, Xorazmda bu qo'shimcha "-qu" shaklida keladi: Hamma gaplarimni senga aytdim-ku! Hamma gaplarimi songo oytidim-qu!

Urganch shahri va tumanida " -qu, - qohi " va Qo'shko'pir tumani hududlarida istiqomad qiluvchi aholi talaffuzida "-vohi " yuklamalari uchraydi. Urganch shahri she'vasi Shahar tipiga, Qo'shko'pir she'vasi turkman she'vasi tipiga yaqin bo'lganligi uchun ba'zi tomonlari bilan farqlanadi. Bular o'zbek tilidagi " -ku " yuklamasining she'vadagi ko'rinishi hisoblanib, u bir qancha fonetik o'zgarishlarga uchragan. Jumladan, " Q " fonemasi - chuqur til orqa, portlovchi, jarangsiz, shovqinli undosh hisoblanib, bu fonema so'z boshida (qoriq (egat), qotti (qattiq) ), o'rtasida (soqqiz ( saqich) ) va oxirida (mizziq ( yig'loqi) )kela oladi ( Jamolxonov, 2013:115 ). " - qohi " va " - vohi " yuklama variantlari o'xshash bo'lib, faqat bir harf o'zgarishi mavjud ( q / v harflari ). " - qu " varianti esa ko'proq Urganch shahri va uning atrofidagi aholi uchun yuklamaning asosiy ishlatilish vositasi hisoblanadi. Bu yuklamalar nutqda so'zlarni uslubiy bo'yoqdorlik xususiyatiga ega bo'lishida , ularni tinglovchiga chiroyli yetkazib berishda qo'l keladi. Bu yuklamalarni barcha so'z turkumlari bilan qo'llab, so'zlovchining nutqiga qo'shimcha uslubiy ma'no yuklashimiz mumkin:

1. Ot so'z turkumi bilan birga kelganda:

Hov b bizani o'quvchi - qohi

Hov b bizani o'quvchi - qu

Hov b bizani o'quvchi - vohi

2. Fe'l so'z turkumi bilan qo'llaganda : Oxshom galding - qohi

Oxshom galding - qu

Oxshom galding - vohi



3. Olmoshlar bilan birga kelganda :

San - qohi yolg'onnon aytdim dagan

San - qu yolg'onnon aytdim dagan

San - vohi yolg'onnon aytdim dagan

4. Sifat so'z turkumi bilan birga kelganda :

Dm ajoyib - qohi b giyimla.

Dm ajoyib - qu b giyimla.

Dm ajoyib - vohi b giyimla

5. Son so'z turkumi bilan birga kelganda:

Chiqaningshi yoshi yigirma - qohi

Chiqaningshi yoshi yigirma - qu

Chiqaningshi yoshi yigirma - vohi

6. Ravish so'z turkumi bilan birga kelganda:

Ishlagan misollaring kam - qohi

Ishlagan misollaring kam - qu

Ishlagan misollaring kam - vohi

Quyidagi misollardan bilishimiz mumkin, Urganch (shahri va tumani), Qo'shko'pir (tumanlari borasida) she'valarida farq bor, garchi ular o'g'uz lahjasiga mansub she'valar hisoblansa ham. Ma'lumot o'rnida shuni aytishimiz kerak- ki, yuklamalar xoh u she'va bo'lsin, xoh adabiy til, barchasida bir xil vazifani bajaradi, ya'ni so'zlovchining nutqiga uslubiy bo'yoqdorlik, qo'shimcha ma'no yuklaydi. Yuklamalarning vazifasi ham ayni shulardan iborat. Ko'makchilarga keladigan bo'lsak, ular ham Xorazm she'valarida turlicha ifodalanadi:

1) "so'ngra" ko'makchisi vazifadosh ko'makchilar sirasiga kirib, Xorazm she'vasida "o'sin" shaklida keladi: Tushda ishdan kelaman, so'ng uyda dam olaman. Abetda ishdan galaman, o'sin uyda dam olomon.

2) "ro'para" ko'makchisi Xorazm she'vasida "mongloyi" so'ziga to'g'ri keladi: Maktabning ro'parasida do'kon ochilibdi. Maktabni mongloyinda dukon ochilipti.

3) "-dek" qo'shimchasi narsa-hodisa, belgi-xususiyatga o'xshatishni ifodalab, kabi, singari, yanglig' ko'makchilari bilan ma'nodoshlik hosil qiladi. Bunda "-dek" qo'shimchasi Xorazm she'vasida "-din" qo'shimchasiga to'g'ri keladi: Tushimda tomdan yiqilayotgandek edim. Dushimda uchakdan yiqiljakdin adim.

Keyingi yordamchi so'zimiz bog'lovchilar bo'lib, ular ham xorazm she'vasida o'zgacha tarzda qo'llaniladi:

1) "bamisoli, xuddi" bog'lovchilari xorazm she'vasida "rasmi" so'ziga teng keladi: Xuddi osmonda uchib yurgandek his qildi o'zini. Rasmi osmonda uchib yurgandin his atti o'zini.

2) "shuning uchun" bog'lovchisi Xorazm she'vasida "shunichun" so'ziga mos keladi: Dars yaxshi o'tdi, shuning uchun sinfda hech kim uxlamadi. Dars yoxshi o'tti, shunichun snfda yech kim uxlomodi.

Ko'rib turganimizdek, Xorazm she'valari adabiy tildan va boshqa she'valardan farq qiladi. Umuman olganda, she'va va adabiy til munosabatlari o'zaro bog'liq bo'lib, ularning bog'liqlik sabablarini va farqlanuvchi jihatlarni o'rgangan holda umumiy fikr dalillashimiz lozim. She'vashunoslik to'g'risida Jumanazarov o'g'uz she'valarining sintaktik xususiyatlarini o'rgangan. Adabiy til singari she'valarda ham o'ziga xos xususiyatlar leksikada, morfologiyada,



fonetikada namoyon bo'ladi. Shunday qilib yordamchi so'z turkumlari o'g'uz she'vasi hududining turli mintaqa tipida joylashganiga qaramasdan, shakli, tuzilishidan qat'iy nazar bir xil ma'noni ifodalaydi va vazifa bajaradi. O'g'uz she'valari borasida olimlarimiz bir qancha ishlarni amalga oshirgan bo'lishsa ham, haligacha bu she'vaning ochilmagan qirralari ko'p. Quyida keltirgan namunalarimiz bunga yaqqol misol bo'la oladi. She'valar adabiy til uchun muhim manbaa hisoblanadi. Jonli she'valarni ishlatilish sabablarini izlash, ularni shakllanish tarixini izchil o'rganish orqali she'valarning ochilmagan, bizga, ya'ni adabiy tilga qorong'u tomonlarini yoritib berish bugungi kunda tilshunos olim va yosh tadqiqodchilarning asosiy vazifalaridan biri bo'lib kelmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'g'uz she'valarining rivoji, taraqqiyoti o'zbek adabiy tili shakllanishi va lug'at tarkibi boyishida tutgan o'rnini baholash, ularni muhim til xususiyatlarini tadqiq etish, o'g'uz she'valari haqida materiallarini to'plash, ularni izohlash va hozirgi o'zbek adabiy tilida ushbu she'va elementlarining qo'llanish sabablarini chuqur o'rganish hamda ularni tahlil qilish o'zbek tilshunosligi tadqiqodchilarining muhim vazifasi hisoblanadi.

### References:

1. F. Abdullayev "O'zbek tilining Xorazm she'valari" Tashkent - 1960
2. Культура и искусство древнего Хорезма. Москва - 1981. Академия наук СССР.
3. O'zbek xalq she'valari lug'ati. Ўзбекистон СССР - "fan" nashriyoti
4. Ўзбек тилшунослиги Раджабов.
5. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" Jamolxonov Toshkent - 2013
6. Советская туркология Академия наук СССР, Баку - 1978 . А.Н.Кононов